

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026-YIL**  
**IYUN/6-SON, III-QISM**



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



**ISSN: 3060-463X**



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afarovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI .....	10
<b>I. R. Berdikulova</b>	
KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBI .....	14
<b>Onorboev Sh.M.</b>	
A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER.....	26
<b>Mukhammadiyahaminova Shakhzoda Sherzodovna</b>	
FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI.....	36
<b>Rahimova Volida Karim qizi</b>	
XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL.....	42
<b>Nigmatjonov Sardor Abdumannovich</b>	
РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД.....	49
<b>Дониёрова Зухрабону Алишер кизи</b>	
KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI...53	
<b>Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna</b>	
MOLIVAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	58
<b>Niyozov Zuxur, Abdujalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira</b>	
KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	61
<b>Davletov Ikrom Raximberganovich</b>	
ИОРДАНИЯ КАК ТУРИСТИЧЕСКИЙ ЦЕНТР БЛИЖНЕГО ВОСТОКА.....	67
<b>Салихова Алина Муратовна</b>	
QUYOSH ENERGIYASINI KONVERSIYALOVCHI OPTOELEKTRON GELIOTRANSFORMATORLARNING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI .....	73
<b>Axunov Qambarali, Xomidov Abdullajon, Mashrapova Irodaxon</b>	
XXI ASRDA O'ZBEKISTONDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR.....	78
<b>Xamrakulova Xilola, Yusupova Sevaraxon</b>	
HUDUDIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI .....	83
<b>Sodiqova Nigora</b>	
BANKLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGI TAHLILI.....	89
<b>Muminov Bekzod Polvonovich</b>	
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА .....	95
<b>Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна</b>	
MILLIY KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	103
<b>G'aniyev Elyor Sobirjonovich</b>	
DIGITALIZATION OF INSOLVENCY PROCESSES: THE ROLE OF A UNIFIED ELECTRONIC PLATFORM IN ENSURING TRANSPARENCY AND ECONOMIC EFFICIENCY .....	110
<b>Damirjon Nurmatovich Soliyev</b>	



О ПРОЦЕССАХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	116
<b>Джумаев Аскар Хайдарович</b>	
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINING HUQUQIY, TASHKILY VA RAQAMLI BAZASINI SHAKLLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR.....	121
<b>Shamsiev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
KO'P XONADONLI UYLARDA KOMMUNAL XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	127
<b>Muminov Obidjon Odilovich</b>	



# KO'P XONADONLI UYLARDA KOMMUNAL XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI

**Muminov Obidjon Odilovich**

Buxoro davlat universiteti

mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0001-7903-6772

E-mail: [obidjonmuminov83@gmail.com](mailto:obidjonmuminov83@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ko'p xonadonli uylarda kommunal xizmatlar ko'rsatish sohasining institutsional asoslari hamda uning hozirgi holati tahlil qilingan. Tadqiqotda kommunal xizmatlar tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, boshqaruv mexanizmlari va sohada faoliyat yuritayotgan subyektlarning funksional vazifalari o'rganilgan. Institutsional iqtisodiyot nazariyasi nuqtayi nazaridan kommunal xizmatlar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar yoritilgan. O'zbekistonda ko'p xonadonli uylarni boshqarishning amaldagi shakllari va ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilingan. Shuningdek, uy-joy fondining rivojlanish ko'rsatkichlari hamda kommunal xizmatlar bilan qamrov darajasi statistik ma'lumotlar asosida baholangan. Markazlashgan ichimlik suvi, kanalizatsiya va issiqlik ta'minoti xizmatlarining qamrov holati bo'yicha integral ko'rsatkichlar hisoblab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ko'p xonadonli uylar, kommunal xizmatlar, institutsional muhit, uy-joy fondi, raqamli boshqaruv, kommunal infratuzilma, xizmatlar sifati.

**Аннотация.** В данной статье проанализированы институциональные основы сферы оказания коммунальных услуг в многоквартирных домах, а также её современное состояние. В исследовании изучены нормативно-правовые документы, регулирующие систему коммунальных услуг, механизмы управления и функциональные обязанности субъектов, действующих в данной сфере. С точки зрения теории институциональной экономики раскрыты факторы, влияющие на эффективность коммунальных услуг. Проанализированы действующие формы управления многоквартирными домами в Узбекистане и их взаимосвязь. Кроме того, на основе статистических данных оценены показатели развития жилищного фонда и уровень охвата населения коммунальными услугами. Рассчитаны интегральные показатели охвата централизованным питьевым водоснабжением, канализацией и теплоснабжением.

**Ключевые слова:** многоквартирные дома, коммунальные услуги, институциональная среда, жилищный фонд, цифровое управление, коммунальная инфраструктура, качество услуг.

**Abstract.** This article analyzes the institutional foundations of communal service provision in apartment buildings, as well as the current state of the sector. The study examines the regulatory legal documents governing the communal services system, management mechanisms, and the functional responsibilities of entities operating in this field. From the perspective of institutional economics, the factors influencing the efficiency of communal services are highlighted. The existing forms of apartment building management in Uzbekistan and their interrelations are analyzed. In addition, the development indicators of the housing stock and the level of coverage with communal services are assessed on the basis of statistical data. Integral indicators of coverage with centralized drinking water supply, sewerage, and heating services are calculated.

**Keywords:** apartment buildings, communal services, institutional environment, housing stock, digital management, communal infrastructure, service quality.

## KIRISH

Ko'p xonadonli uy-joy fondini samarali boshqarish hamda aholiga sifatli kommunal xizmatlar ko'rsatish masalasi zamonaviy shaharsozlik va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Urbanizatsiya jarayonlari ta'sirida ko'p qavatli turar joylarda yashovchi aholi sonining ortib borishi kommunal xizmatlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirishni, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan institutlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirishni talab etmoqda. Zero, issiqlik ta'minoti, ichimlik suvi, oqova suv

tizimi, elektr energiyasi, chiqindilarni olib chiqish, uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash kabi xizmatlarning sifati aholining turmush darajasi hamda hayot sifati bilan bevosita bog'liqdir.

Mamlakatimizda uy-joy kommunal xo'jaligi sohasini isloh qilish, ko'p xonadonli uylarni boshqarishning zamonaviy shakllarini joriy etish hamda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, boshqaruv servis kompaniyalari faoliyatini rivojlantirish, raqamli boshqaruv elementlarini joriy etish, xizmatlar sifati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan institutsional o'zgarishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Mazkur tadqiqotda ko'p xonadonli uylarda kommunal xizmatlar ko'rsatish sohasining institutsional asoslari, ushbu tizimda ishtirok etuvchi davlat va nodavlat subyektlarning funksional vazifalari hamda amaldagi boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, sohaning hozirgi holati statistik ma'lumotlar va amaliy tajribalar asosida baholanib, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etishning ustuvor yo'nalishlari aniqlanadi.

Ko'p xonadonli uylarda kommunal xizmatlar ko'rsatish samaradorligi nafaqat muhandislik-texnik infratuzilmaning holatiga, balki ushbu sohani tartibga soluvchi institutsional muhit sifatiga ham bevosita bog'liqdir. Iqtisodiy adabiyotlarda institutsional muhit iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi rasmiy, ya'ni qonunlar, me'yorlar va qoidalar, shuningdek, norasmiy, ya'ni an'analar, urf-odatlar va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari majmui sifatida talqin etiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Institutsional iqtisodiyot nazariyasining asoschilaridan biri D. Nort institutlarni "o'yin qoidalari" sifatida ta'riflab, ularning iqtisodiy o'sish hamda tarmoqlar samaradorligini belgilovchi muhim omil ekanligini asoslab bergan [1]. Uning fikricha, samarali institutlar tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi hamda iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari o'rtasida ishonchli muvofiqlashtirishni ta'minlaydi. Tranzaksiya xarajatlari nazariyasini rivojlantirgan O. Uilyamson esa boshqaruv tuzilmalarini tanlash xarajatlarni minimallashtirish tamoyiliga asoslanishini ilmiy jihatdan izohlab bergan [2].

Ko'p xonadonli uy-joy fondi institutsional jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega, chunki unda umumiy mol-mulk, jumladan, liftlar, zinapoyalar, muhandislik tarmoqlari va tutash hudud bir nechta mulkdorning birgalikdagi mulki hisoblanadi. Bunday umumiy resurslarni boshqarish muammosi E. Ostrom tomonidan "umumiy foydalanishdagi resurslar" nazariyasi doirasida chuqur tahlil qilingan. Olima jamoaviy mulkni samarali boshqarish uchun aniq belgilangan chegaralar, kollektiv qaror qabul qilish tartiblari hamda samarali nazorat mexanizmlari zarurligini ta'kidlaydi [3]. Mazkur nazariy yondashuvlar ko'p xonadonli uylarda kommunal xizmatlar ko'rsatishni tashkil etishda institutsional asoslar yetakchi o'rin tutishini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ko'p xonadonli uylarda kommunal xizmatlar ko'rsatish sohasining institutsional asoslari va amaldagi holatini baholashga qaratilgan ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini institutsional iqtisodiyot nazariyasi, tizimli tahlil hamda qiyosiy yondashuv tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasining uy-joy va kommunal xo'jalik sohasiga oid qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning institutsional boshqaruv, kommunal xizmatlar hamda uy-joy fondini boshqarish masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlari o'rganildi.

Tadqiqotda statistik tahlil usulidan foydalanilib, O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi hamda boshqa rasmiy manbalar ma'lumotlari umumlashtirildi. Kommunalar xizmatlari bilan qamrov darajasi, uy-joy fondining rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv subyektlari faoliyati dinamikasi tahlil qilindi. Tizimli yondashuv asosida ko'p xonadonli uylarni boshqarish jarayonida ishtirok etuvchi davlat organlari, boshqaruv servis kompaniyalari, mulkdorlar shirkatlari hamda kommunal ta'minot korxonalarini o'rtasidagi o'zaro aloqalar o'rganildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida ko'p xonadonli uylarda kommunal xizmatlar ko'rsatish hamda umumiy mol-mulkni boshqarish sohasi keng qamrovli normativ-huquqiy baza asosida tartibga solinadi. Mazkur sohaning institutsional asoslarini belgilovchi asosiy qonunchilik hujjatlari 1-jadvalda tizimlashtirilgan.



## 1-jadval

Ko'p xonadonli uylarda kommunal xizmatlar ko'rsatish sohasining asosiy normativ-huquqiy asoslari<sup>1</sup>

T/r	Normativ-huquqiy hujjat	Tartibga soluvchi asosiy masalalar
1	O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi <sup>2</sup>	Uy-joy fondi, mulkdorlarning huquq va majburiyatlari, umumiy mol-mulkka egalik qilish masalalari
2	O'zbekiston Respublikasining "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida"gi Qonun, O'RQ-581-son, 07.11.2019 yildagi <sup>3</sup>	Boshqaruv usullari, mulkdorlarning umumiy yig'ilishi hamda boshqaruv organlarining vakolatlari
3	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish faoliyatini amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" 3-son qarori, 03.01.2022 yildagi <sup>4</sup>	Ko'p kvartirali uylarni boshqarish faoliyatini amalga oshirish qoidalari
4	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ko'p kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-278-son qarori, 15.08.2023 yildagi <sup>5</sup>	Ko'p kvartirali uylarni boshqarishni samarali tashkil etish, majburiy badallarning eng kam miqdorlarini belgilash hamda "Mening uyim" tizimini joriy etish
5	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-347-son qarori, 19.11.2025 yildagi <sup>6</sup>	Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi faoliyatini tashkil etish

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, sohaning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi [4], maxsus qonunlar [5, 6] hamda hukumat va Prezident qarorlari [7–9] orqali ko'p bosqichli tarzda mustahkamlangan. So'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, avvalo, boshqaruv tizimini raqamlashtirish, kommunal xizmatlar sifati ustidan nazoratni kuchaytirish hamda iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Qonunchilikda boshqaruvning uchta asosiy shakli nazarda tutilgan: mulkdorlar tomonidan bevosita boshqarish, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati (XUMSh) orqali boshqarish hamda boshqaruvchi tashkilot yoki boshqaruvchini jalb etish. Sohaning institutsional tuzilmasi va undagi asosiy subyektlarning o'zaro bog'liqligi 1-rasmda keltirilgan.

1 Muallif tomonidan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tuzilgan.


2 O'zbekiston Respublikasining UY-JOY KODEKSI <https://lex.uz/acts/-106136>.

3 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.11.2019 yildagi O'RQ-581-son <https://lex.uz/uz/docs/-4586282>.

4 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.01.2022 yildagi 3-son <https://lex.uz/uz/docs/-5805743>.

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.08.2023 yildagi PQ-278-son <https://lex.uz/docs/-6581528>.

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.11.2025 yildagi PQ-347-son <https://lex.uz/docs/-7850383>.



1-rasm. Ko'p xonadonli uylarda kommunal xizmatlar ko'rsatishning institutsional tuzilmasi<sup>7</sup>.

Rasmdan ko'rinadiki, tizimning yuqori bo'g'inida davlat tomonidan tartibga solish vazifasini Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi amalga oshiradi. Hududiy ta'minlovchi korxonalar, ya'ni suv, issiqlik, gaz va elektr ta'minoti tashkilotlari zarur resurslarni yetkazib beradi. "Mening uyim" axborot-billing tizimi esa hisob-kitob, ovoz berish va hisobot jarayonlarini raqamli shaklda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Boshqaruvning uchta shakli orqali kommunal xizmatlar pirovardida iste'molchilarga, ya'ni uy-joy mulkdorlariga yetkaziladi.

Sohaning hozirgi holatini tahlil qilishda, avvalo, ko'p xonadonli uy-joy fondining miqyosini baholash muhim ahamiyatga ega. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil 1-yanvar holatiga respublikada ko'p kvartirali uylar soni 47 776 tani tashkil etgan [10]. Umumiy uy-joy fondi 2024-yilda 7,6 mln birlikka yetgan, aholi jon boshiga uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi esa 2017-yildagi 15,7 m<sup>2</sup> dan 2024-yilda 19 m<sup>2</sup> ga ko'tarilgan [11]. Ko'p xonadonli uy-joy fondining asosiy ko'rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Ko'p xonadonli uy-joy fondining asosiy ko'rsatkichlari<sup>8</sup>

T/r	Ko'rsatkich	Qiymati
1	Ko'p kvartirali uylar soni (2023-y. 1-yanvar)	47 776 ta
2	Shu jumladan, Toshkent shahrida	11 258 ta
3	Umumiy uy-joy fondi (2024-y.)	7,6 mln birlik
4	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan uy-joy maydoni (2017-y.)	15,7 m <sup>2</sup>
5	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan uy-joy maydoni (2024-y.)	19,0 m <sup>2</sup>
6	2024-yilda foydalanishga topshirilgan ko'p kvartirali uylar	2 044 ta (100 264 xonadon)


Mazkur uy-joy fondiga xizmat ko'rsatuvchi boshqaruv subyektlarining tarkibi ham alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda respublikada 900 dan ortiq boshqaruv, ya'ni servis tashkilotlari, 200 dan ortiq mulkdorlar shirkati faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 856 ta uyda o'zini-o'zi

7 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

8 Muallif tomonidan rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tuzilgan




boshqarish tizimi joriy etilgan [12]. Boshqaruv shakllarining taqsimoti 2-rasmda aks ettirilgan.



2-rasm. Ko'p xonadonli uylarni boshqarish shakllarining taqsimoti<sup>9</sup>.

Kommunal xizmatlar ko'rsatish sohasining hozirgi holatini baholashda aholining markazlashgan xizmatlar bilan qamrab olinish darajasi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda markazlashgan ichimlik suvi ta'minoti qamrovi sezilarli darajada oshib, 2017-yildagi 64 foizdan 2025-yilda 82,8 foizga yetgan [13]. Mazkur ko'rsatkich dinamikasi 3-rasmda keltirilgan



3-rasm. Markazlashgan ichimlik suvi ta'minoti qamrovi darajasining dinamikasi (2017–2025-yillar)<sup>10</sup>.

Shu bilan birga, kommunal xizmatlarning ayrim turlari bo'yicha qamrov darajasini yanada oshirish zarurati mavjud. Xususan, markazlashgan kanalizatsiya, ya'ni oqova suv xizmatlari bilan qamrov darajasi 22,3 foizni, markazlashgan issiqlik ta'minoti qamrovi esa 37 foizni tashkil etmoqda. Asosiy kommunal xizmatlar bo'yicha qamrov ko'rsatkichlari 3-jadvalda umumlashtirilgan.

9 Muallif tomonidan rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tuzilgan.

10 Muallif tomonidan Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

## 3-jadval

Markazlashgan kommunal xizmatlar bilan qamrov darajasi (2025-yil)<sup>11</sup>

T/r	Kommunal xizmat turi	Qamrov darajasi, %
1	Markazlashgan ichimlik suvi ta'minoti	82,8
2	Markazlashgan issiqlik ta'minoti	37,0
3	Markazlashgan kanalizatsiya (oqova suv)	22,3
4	Suv hisoblagichlari bilan qamrov	86,0

Sohaning umumlashtirilgan holatini miqdoriy baholash maqsadida bir qator institutsional ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Markazlashgan kommunal xizmatlar bilan qamrovning integral indeksi ( $I_q$ ) ayrim xizmat turlari qamrovining o'rtacha qiymati sifatida quyidagicha hisoblanadi:

$$I_q = \frac{\sum_{i=1}^n Q_i}{n} \quad (2.1)$$

bu yerda:  $I_q$  - qamrovning integral indeksi, %;  $Q_i$  - i-xizmat turi bo'yicha qamrov darajasi, %;  $n$  - hisobga olingan xizmat turlari soni.

Tahlilga olingan uchta asosiy xizmat turi (ichimlik suvi - 82,8%, kanalizatsiya - 22,3%, issiqlik ta'minoti - 37,0%) bo'yicha hisob-kitob quyidagi natijani beradi:

$$I_q = \frac{82,8 + 22,3 + 37,0}{3} = \frac{142,1}{3} \approx 47,4\%$$

Hisob-kitob natijasiga ko'ra, markazlashgan kommunal xizmatlar bilan qamrovning integral indeksi 47,4 foizni tashkil etadi.

Qamrov darajasining o'zgarish dinamikasini baholash uchun o'sish sur'atini ( $T$ ) hisoblash maqsadga muvofiqdir:

$$T_{o'sish} = \frac{Q_{2025} - Q_{2017}}{Q_{2017}} \times 100\% \quad (2.2)$$

bu yerda:  $Q_{2025}$  va  $Q_{2017}$  - mos ravishda 2025 va 2017-yillardagi qamrov darajasi, %.  
Markazlashgan ichimlik suvi ta'minoti misolida hisob-kitob quyidagicha amalga oshiriladi:

Demak, 2017–2025-yillar mobaynida markazlashgan ichimlik suvi ta'minoti qamrovi 29,4 foizga o'sgan. Bu sohada amalga oshirilgan keng ko'lamli investitsion loyihalar va islohotlarning ijobiy natijasini tasdiqlaydi.

Institutsional tuzilmaning yuklamasini baholash uchun bitta boshqaruv subyektiga to'g'ri keladigan o'rtacha uylar sonini ( $Z_b$ ) aniqlash mumkin:

$$Z_b = \frac{N_{uy}}{N_s} \quad (2.3)$$

bu yerda:  $N_{uy}$  - ko'p kvartirali uylarning umumiy soni;  $N_s$  - boshqaruv subyektlarining umumiy soni (boshqaruv tashkilotlari, shirkatlar va o'zini-o'zi boshqarish tizimlari).

Boshqaruv subyektlarining umumiy soni 1 956 birlikni (900 + 200 + 856) tashkil etishini hisobga olib, hisob-kitobni amalga oshiramiz:

$$Z_b = \frac{47\,776}{1\,956} \approx 24,4$$

Hisob-kitob natijalariga ko'ra, har bir boshqaruv subyektiga o'rtacha 24,4 ta ko'p kvartirali uy to'g'ri keladi.

O'tkazilgan tahlil ko'p xonadonli uylarda kommunal xizmatlar ko'rsatish sohasida ayrim institutsional masalalarni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Birinchidan, boshqaruvchi tashkilotlar va shirkatlar ta'minlovchi korxonalar oldidagi qarzdorligini kamaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15-avgust 2023-yildagi "Ko'p kvartirali uylarni boshqarishni

11 Muallif tomonidan rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tuzilgan.



yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-278-sonli Qarorda<sup>12</sup> ularning hududiy elektr tarmoqlari korxonalarini oldidagi qarzdorligi 80,5 mlrd so'm miqdorida ekanligi qayd etilgan. Ikkinchidan, boshqaruv subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, servis kompaniyalari faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, kommunal xizmatlarning ayrim turlari, xususan, kanalizatsiya va issiqlik ta'minoti bo'yicha qamrov darajasini yanada oshirish zarur.

Mazkur vazifalarni samarali hal etish maqsadida 2026–2030-yillarda ayrim shahar va tumanlarda ko'p kvartirali uy-joylarni boshqarishning klaster tizimini huquqiy eksperiment sifatida joriy etish nazarda tutilgan. Eksperiment doirasida uylarning texnik va tashkiliy holati tahlil qilinib, ular "yashil", "sariq" va "qizil" toifalarga ajratiladi. Shuningdek, kamida 7 ming xonadondan iborat lotlar shakllantirilib, boshqaruvchi tashkilotlar "Mening uyim" tizimi orqali mulkdorlar tomonidan tanlanadi [12]. Ushbu yondashuv sohani institutsional jihatdan modernizatsiya qilish, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda xizmatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan muhim qadam hisoblanadi.

O'zbekistonda ko'p xonadonli uylarda kommunal xizmatlar ko'rsatish sohasi rivojlangan normativ-huquqiy va institutsional asosga ega. So'nggi yillarda boshqaruv tizimini raqamlashtirish, xizmatlar qamrovini kengaytirish va iste'molchilarga qulaylik yaratish bo'yicha sezilarli natijalarga erishilmoqda. Shu bilan birga, boshqaruv subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ayrim xizmat turlari qamrovini oshirish hamda boshqaruv yuklamasini optimallashtirish sohaning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Mazkur masalalar keyingi paragraflarda batafsil tahlil qilinadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'p xonadonli uylarda kommunal xizmatlar ko'rsatish tizimining samaradorligi, avvalo, uning institutsional tuzilmasining mukammalligi hamda boshqaruv subyektlari o'rtasidagi hamkorlik darajasiga bevosita bog'liqdir. So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida boshqaruv servis kompaniyalari faoliyati yo'lga qo'yildi, xizmatlar ko'rsatishning ayrim yo'nalishlarida bozor tamoyillari joriy etildi hamda iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslari mustahkamlandi.

Shu nuqtayi nazardan, ko'p xonadonli uylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, boshqaruv servis kompaniyalari faoliyatini baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish, kommunal xizmatlar sifatini monitoring qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish hamda iste'molchilarning qoniqish darajasini muntazam o'rganib borish dolzarb hisoblanadi. Bundan tashqari, sohada davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, raqamli boshqaruv platformalarini rivojlantirish va aholining kommunal madaniyatini oshirish orqali xizmatlar sifatini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Demak, ko'p xonadonli uylarda kommunal xizmatlar ko'rsatish sohasining institutsional asoslari va amaldagi holatini chuqur tahlil qilish ushbu tizimni modernizatsiya qilish, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda aholining kommunal xizmatlardan qoniqish darajasini yuksaltirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish uchun zarur metodologik zamin yaratadi. Mazkur holat keyingi paragraflarda kommunal xizmatlar sifatini baholash mezonlari va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq etish dolzarbligini belgilab beradi.

Ko'p xonadonli uylarda kommunal xizmatlar samaradorligini oshirish uchun boshqaruv servis kompaniyalari faoliyatini baholovchi aniq reyting tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. "Mening uyim" platformasi orqali to'lovlar, murojaatlar va xizmat sifati monitoringini to'liq raqamlashtirish zarur. Kanalizatsiya va issiqlik ta'minoti qamrovini kengaytirish uchun davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ko'paytirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, mulkdorlarning umumiy yig'ilishlardagi faolligini oshirish, kommunal madaniyatni kuchaytirish hamda qarzdorlikni kamaytirish bo'yicha rag'batlantiruvchi mexanizmlarni ishlab chiqish lozim. Hududlar kesimida xizmatlar sifati muntazam taqqoslanib, past ko'rsatkichga ega boshqaruv subyektlariga tashkiliy va amaliy yordam ko'rsatish zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. North, D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance / D.C. North. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.
2. Williamson, O.E. The Economic Institutions of Capitalism / O.E. Williamson. – New York: The Free Press, 1985. – 450 p.
3. Ostrom, E. Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action / E. Ostrom. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 280 p.
4. O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi [Elektron resurs] // Milliy qonunchilik ma'lumotlar bazasi. – URL: <https://lex.uz/acts/-106136>.
5. "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2019-yil 7-noyabrdagi O'RBQ-581-son
- 12 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.08.2023 yildagi PQ-278-son <https://lex.uz/docs/-6581528>.



- [Elektron resurs] // Lex.uz. – URL: <https://lex.uz/docs/-4586282>.
6. “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish faoliyatini amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-yanvardagi 3-son qarori [Elektron resurs] // Lex.uz. – URL: <https://lex.uz/docs/-5805743>.
  7. “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-avgustdagi PQ-278-son qarori [Elektron resurs] // Lex.uz. – URL: <https://lex.uz/docs/-6581528>.
  8. “O‘zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi PQ-347-son qarori [Elektron resurs] // Lex.uz. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7850383>.
  9. Ko‘p kvartirali uylar soni bo‘yicha ma‘lumotlar [Elektron resurs] // O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. – 2023. – URL: <https://stat.uz>.
  10. 2024-yilda uy-joy bozori: 100 mingdan ortiq xonadon qurildi [Elektron resurs] // Gazeta.uz. – 2025. – URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2025/03/14/kvartira/>.
  11. Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish sohasida navbatdagi islohotlar [Elektron resurs] // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – 2026. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8858>.
  12. 2025-yilda aholining ichimlik va oqova suv xizmatlaridan qarzdorligi qisqardi [Elektron resurs] // Gazeta.uz. – 2026. – URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2026/01/10/suv/>.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## 2026. № 6

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)